



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ  
JIZZAX FILİALI

YANGI O'ZBEKİSTON: FAN,  
TA'LIM VA INNOVATSIYA  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN  
**MATERIALLARI TO'PLAMI**


1-QISM



9-10-APREL  
2024-YIL



boshqaruvining kelib chiqishini davlatchilikning shakillanish asoslarini quyidagicha tuzushimiz mumkin[4].



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak davlat boshqaruvi insoniyat tamaddudining so'nggi 5 ming yili bilan bog'lanadi va hozirgi zamon boshqaruv tizimidan tubdan farq qoladi

#### Foydalanilgan adabyotlar

1. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari T., "Sharq", 1998
2. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanтирish yo'lida – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Махкамов S. Теоретические основы базы данных (мб) и системы управления базами данных (мбт) / III. Махкамов. – Информатика и инженерные технологии. – 2023. – № 1. – С. 90-94.
4. Mahkamov Sh. Davlat boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bosqichlari / Mahkamov Shohruh Sarvar o'g'li - International scientific-practical conference - 2023. № 1, - 275-277 b.

### OLIY TALIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Mamatov Narzullo Solidjonovich,**  
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti.t.f.d., prof  
[m\\_narzullo@mail.ru](mailto:m_narzullo@mail.ru)

**Ibroximov Sanjar Rustam o'g'li**  
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti,  
[ib.sanjar93@gmail.com](mailto:ib.sanjar93@gmail.com)

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda xususiy va davlat oliy ta'lrim muassasalarini (OTM)da shaffoflik va mas'uliyat talablari kuchaymoqda. Bu OTMni ichki va tashqi manfaatdor tomonidan

ta'minlanayotgan ta'lim sifatini mahalliy, mintaqaviy va ichki standartlarga javob berishiga ishonch hosil qilish uchun tekshirish bilan bog'liq. Mazkur maqola OTM ta'lim sifatini nazorat qilishdagi ta'sir ko'rsatuvchi omillar ya'ni, talabani boshlang'ich salohiyati, boshqaruv tizimlari, o'quv xonalaridagi sharoitlar, muhit, moddiy manbalarni yetishmasligi, muassasalarni ma'suliyatsizligi va o'qitish usullariga bag'ishlangan bo'lib, unda mazkur muammolarni bartaraf etish yo'llari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** *ta'lim sifati, oliv ta'lim, moddiy manba, o'quv dasturlar, barqaror rivojlanish maqsadlari.*

### **Kirish**

Dunyo olimlari va yetakchi mutaxassislar tomonidan 2015-yil sentyabrda 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) qabul qilingan bo'lib, ulardan biri faqat sifatlari ta'limga qaratilgan. Bunda barcha uchun inklyuziv va sifatlari ta'limni ta'minlash hamda umrbod ta'limni rivojlantirish 4-maqsadda belgilab o'tilgan. Ushbu maqsadga muvofiq, sifatlari ta'lim - bu jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va geografik joylashuvidan qat'iy nazar, har bir talabani ijtimoiy, hissiy, aqliy, jismoniy va kognitiv rivojlanishiga yo'naltirilgandir. Ta'lim rivojlanishini ta'minlash uchun o'ziga xos va samarali ta'lim vositalaridan foydalanish, qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti va sifatlari ta'lim shaxslar, jamoalar va jamiyatlarni gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan natijalarni beradi [1].

Raqamli texnologiyalar va bugungi sharoitlar insoniyatga ta'lim olishni qulay va soddalashtirishiga qaramay, ko'plab OTMdagi ta'lim sifati natijalari buni aksini ko'rsatmoqda. Mazkur ishda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi hal etilmagan asosiy muammolar o'rganilib, ular asosida xulosalar berilgan.

**OTMdai ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar.** OTMdai ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillaridan biri talabalarni boshlangich salohiyati bo'lib, oliv ta'limdan oldingi ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati yetarli bo'limganligi uchun talabalarni boshlang'ich bilimlari yetarli bo'lmaydi va hozirgi o'quv rejalaridagi fanlarni o'zlashtirishga qiyinalishadi [2].

- OTM ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan yana biri bu boshqaruvni nisbatan samarasizligi hisoblanadi. Umuman olganda OTMdagi ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari, dekanat va boshqa sifat uchun ma'sul bo'limlari xodimlari ishni sifatsiz olib borishi bilan bog'liq. Odatda bu kabi lavozimlarga ishga qabul qilishda rektor yoki prorektorlarni talabgorni ish samaradorligi emas, balki uni ish staji ko'proq qiziqtiradi [3]. Bundan tashqari, bo'limlarni asosiy vazifalarini deyarli barchasi quyி bo'limlarga, xususan kafedralarga yuklatiladi.

- Ayrim o'quv xonalarini belgilangan standartlarga javob bermasligi, ayniqsa bu kompyuter ilmlari bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ayrim OTMdai ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga auditoriyani yoki guruhni shakllantirish jarayonida yo'l qo'yiladigan jiddiy xatoliklar. Masalan, manbalarni tejash maqsadida ma'ruza va amaliyotlarda guruhlar sonini ko'paytirish [4].

- Talabalarga zarur bo'lgan xizmatlarni yetarli darajada ko'rsatish imkonini mavjud emasligi. Bugungi kunda OTMni aksariyati talabalarga mos yo'naltirilgan dasturlar, sog'liqni saqlash xizmatlari, yotoqxonalar, yo'l-yo'riq va maslahat xizmatlari kabilarni to'liq va mukammal taqdim eta olmasligi. Bu kabi holatlar talaba asosiy e'tiborini ta'limga emas, balki boshqa ikkilamchi maqsadlarga yo'naltirishga majbur qiladi [5].

- Moddiy manbalarni yetarli emasligi. Hozirgi kunda OTMning aksariyatida qurilish uchun zarur moddiy manbalar yetarli emas. Masalan, o'yin maydonchalari, zamonaviy o'quv xonalari, infratuzilma, ilg'or texnologiyalarga asoslangan jihozlarga ega bo'lgan laboratoriya xonalari, hattoki hojatxona va xodimlar uchun alovida xonalarni mavjud emasligi [6].

- Muassasalarni mas'uliyatsizligi esa oliv ta'lim sifatini jiddiy pasayishiga olib keladi. Bunda dars jarayoni samarasiz bo'imasligi, samarali o'qituvchi butun umr o'rganuvchi bo'lishi va o'z bilimini ixtiyoriy mustahkamlashi talab etiladi. Yaxshi muassasa esa professor-o'qituvchilar yordamida tezroq taniladi. Muassasa turli jurnallar va yaxshi kutubxona bilan ta'minlangan

bo‘lishi shart, bu esa o‘qituvchilar malakasini yanada oshirish imkonini beradi [7].

- O‘qitish usullari. O‘quv dasturi shunday bo‘lishi kerakki, u jamiyat uchun foydali bo‘lgan yangi bilimlarni taqdim etishi va ishga joylashish imkoniyatlarini ta‘minlashi shart. Bunda o‘qituvchilardan sifatli o‘quv materiallari, multimedia, zamonaviy ITdan foydalanishni bilishlari talab etiladi [8].

- Oliy ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi boshqa omillar ham mavjudki, jumladan o‘qituvchi va talaba motivatsiyasi, o‘quv-tarbiya jarayoni uchun qulay shart-sharoitlar, o‘quv dasturini muvofiqligi bandlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

### Xulosa

Ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar jamiyatni saloxiyatsiz kadrlarga boyitadi va butun bir davlatni rivojlanishiga qa’tiy to‘sinqilik ko‘rsatadi. Shuning uchun bu kabi muammolarni o‘z vaqtida sifatli hal etish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. The Wellspring Foundation for Education. (2022, May 21). What do we mean by Quality Education? - The Wellspring Foundation for Education. <https://thewellspringfoundation.org/resources/>
2. Chaudhary, S. (2011), Problems and prospects of Indian Higher Education in the Age of globalization, University News, vol. 49(23)
3. Ranganathan, R. & Rao, SVL (2011): Reformation of Higher Education in India: Quality Concerns; University News, 49 (10) March 07-13: Delhi.
4. Singh, K.P. & Ahmad, S. (2011), Higher Education in India: Major Concerns, University News, vol. 49(29): Delhi.
5. UNESCO (2005): Education for All: the Quality Imperative; UNESCO Report 2005.
6. R. Srinivas "Quality Concerns in Higher Education in India" Iconic Research And Engineering Journals Volume 6 Issue 8 2023 Page 69-73
7. Mamatov, N., & Ibroximov, S. (2023). Artificial intelligence in education: paving the way for a more effective learning experience. Informatika i injenernysiye texnologii, 1(2), 107-109.
8. Solidjonovich, M. N., O‘G‘Li, I. S. R., O‘Gli, F. V. O., & O‘G‘Li, S. A. N. (2023). SUN‘IY INTELLEKT VOSITALARINI TA‘LIMNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHDA QO‘LLASH. Al-Farg‘oniy avlodlari, 1(4), 291-297.

### GRAFIK TA’LIM JARAYONIDA DIZAYN FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH

Mardov Sanjar Xudoykulovich

PhD, v.b., dotsent, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

[sanjar.mardov@mail.ru](mailto:sanjar.mardov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda oliy ta’lim maskanlarida grafik ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Grafik ta’lim sohasini ya’nada jozibali qilib ko‘rsatishda dizayn fikrlash muhim omillardan biri ekanligi o‘z isbotini topdi. Xususan arxitektura yo‘nalishi mutaxassislari hisoblanmish muhandis-quruvchilar uchun dizyn fikrlash va uning nazariy jihatlarini mukammal bilib talab etiladi. Chunki ular yaratayotgan va barpo etayotgan loyiha inshoatlari foydalanuvchilar uchun qulay va shinam bo‘lishi talab etiladi. Shuning uchun ham dizayn fikrlash va uning nazariy jihatlari, takibiy tuzilmasini o‘rganishlari talab etiladi.

**Kalit so‘zlar:** dizayn fikrlash, grafik ta’lim, interer, grafik dastur, standart, innovatsiya, grafika, arxitektura, muhandis, vektorli grafika, loyiha, modeling.

Ayniqsa XXI – asr axborot texnologiyalar asridan ta’limning qaysi bo‘g‘inida bo‘lishidan qa’tiy nazar axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan turib o‘qitishda sifat-samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Oldinlari darslarda faqat ma’ruzalar og‘zaki, amaliyotlar doskalarda yozish chizish orqali o‘tilar edi. Asta-sekinlik bilan ko‘rgazmali materiallardan, pedagogik texnologiyalardan foydalanishga o‘tildi. Bu holatda gumanitar fanlar, tabiiy fanlar va aniq fanlarning ba’zilarida natija yaxshi bo‘lar edi. Lekin aniq fanlar qatorida bo‘lgan arxitektura